

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI  
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG  
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN  
CHILANGARLIK ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI  
TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

**Toshkent – 2026**

# **O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN CHILANGARLIK ISHLARI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI**

## **I. Maqsad**

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida chilangarlik ishlari maxsus fanidan talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalri, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

## **II. Me’yoriy asoslar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “**Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida**”gi 572-sonli Qarori.

2. Fan dasturi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 47-q/q-sonli hamda Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining 2025-yil 18-avgustdagi 40-q/q-sonli “Umumta’lim fanlarini kasbiy ta’lim yo‘nalishiga mos tanlov fanlari orqali o‘qitishni tashkil etish to‘g‘risidagi” qo‘shma qaroriga muvofiq joriy etilgan.

## **III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari**

### **Chilangarlik ishlari**

Neft va uni qayta ishlash mahsulotlari

Avtomobil benzinlari

Dizel dvigatellari uchun yonilg‘ilar

Gazsimon yonilg‘ilar

Ichki yonuv dvigatellar uchun moylari

Ichki yonuv dvigatellari uchun moylar (Maxsus moylar)

Transport vositalarining uzatgichlarida ishlatiladigan moylar. Transport vositalarida ishlatiladigan plastik surkov moylari)

Transport vositalarida qo‘llaniladigan maxsus suyuqliklar

Neft mahsulotlari sarfini me’yorlash va tejash yo‘llari. (Neft mahsulotlari bilan ishlashda xavfsizlik texnikasi va yong‘inga qarshi chora-tadbirlar)

Transport vositalarida qoʻllaniladigan konstruksion materiallar.  
 Avtomobilsozlikda ishlatiladigan plastmassalar  
 Avtomobilsozlikda ishlatiladigan rezinalar  
 Lok-buyoq materiallari va ular asosidagi qoplamalar  
 Sintetik moylar  
 Avtomobillardagi interer va jihozlash materiallari.

#### IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstuktlar

<b>T/ r</b>	<b>Mazmun sohalar</b>	<b>Konstruktlar</b>	<b>Testlar soni</b>
<b>1</b>	Chilangarlik ishiga kirish va mehnat muhofazasi	Chilangarlik ishiga kirish va mehnat muhofazasi Chilangarlik ishi turlari yoritish, mehnat madaniyati va mahsulot sifati toʻgʻrisida tushuncha berish, texnika, elektr va yongʻin xavfsizligi qoidalarini tushuntirish. Texnika, elektr va yongʻin xavfsizligi boʻyicha jihozlarni tahlil qilish, ish joyini talab boʻyicha tashkil etish.	4 ta
<b>2</b>	Oʻlchash va rejalash asoslari	Oʻlchash asoslari, chilangarlikda qoʻllaniladigan oʻlchash asboblari turi, tuzilishi va ulardan foydalanish, oʻlchash qoidalarini oʻrgatish. Oʻlchash asbobini tanlash, detallar uzunligi, chuqurlik, burchak, diametr, zazor (tirqish) va rezbalarni oʻlchash. Rejalash ishlari mohiyati, rejalash asboblari va moslamalar turi, ularning vazifasi, rejalash ishlarini tartibini tushuntirish. Rejalash asboblari tanlash, Moslamarni oʻrnatish, tekislikda va fazoviy rejalash ishlarini bajarish	4 ta
<b>3</b>	Metallarni kesish va qirqish	Metallarni kesish asboblari turi va vazifalari, asboblari tuzilishi ularga qoʻyiladigan talablar, metallarni kesishdagi xavfsizlik texnikasi qoidalarini oʻrgatish. Metallarni kesish asboblari tanlash, sozlash, rejaga asosan metallarni kesish. Metallarni qirqish asboblari turi va vazifalari, asboblari tuzilishi ularga qoʻyiladigan talablar, metallarni qirqishdagi xavfsizlik texnikasi qoidalarini oʻrgatish. Metallarni qirqish asboblari tanlash, sozlash, rejaga asosan metallarni qirqish.	4 ta
<b>4</b>	Metallarni toʻgʻrilash	Metallarni toʻgʻrilash asboblari turi va vazifalari, asboblari tuzilishi ularga qoʻyiladigan talablar, metallarni toʻgʻrilashdagi xavfsizlik texnikasi qoidalarini oʻrgatish. Metallarni toʻgʻrilash asboblari tanlash, sozlash, rejaga asosan metallarni toʻgʻrilash	4 ta

5	Metallarni egish	Metallarni egish asboblari turi va vazifalari, asboblarning tuzulishi ularga qo'yiladigan talablar, metallar egishdagi xavfsizlik texnikasi qoidalarini o'rgatish. Metallarning egish asboblari tanlash, sozlash, rejaga asosan metallarni egish.	4 ta
7	Egovlash	Egovlash texnologiyasi, egovlar turi va ularning tasnifi, egovlash tartibi va usullari, egovlangan yuzani tekshirish usullari, metallar egovlashdagi xavfsizlik texnikasi qoidalarini o'rgatish. Ish joyini tashkillash, metallarni rejaga asosan egovlash. Fason yuzalarni va yuqqa listlarni egovlash texnologiyasi va usullari. Egovlangan yuzani tekshirish usullari. Metallarning egovlashdagi xavfsizlik texnikasi qoidalarini. Ish joyini tashkillash. Metallarni rejaga asosan har xil usullarda egovlash	4 ta
8	Parmalash, zenkovkalash va razvyortkalash	Parmalash ishlari texnologiyasi., parmalash dastgohlari tuzulishi va ularni sozlash (parmalash rejimini hisoblash), parmalar turi, ularni konstruksiyasi, kesuvchi qismi geometriyasi va ularni charxlashdagi talablar, ochiq va yopiq teshiklarni parmalash jarayoniga tayyorgarlik ishlarini o'rgatish. Parmalash dastgohini sozlash, parmalashga tayyorgarlik qilish, ochiq va yopiq teshiklarni parmalash. Zenkerlash, zenkovkalash va razvyortkalash ishlari texnologiyasi, zenkerlar va razvyortkalar turi, ularni konstruksiyasi, kesuvchi qismi geometriyasi. Zenkerlash, zenkovkalash va razvyortkalash ishlariga tayyorgarlik qilish. Ochiq va yopiq teshiklarni zenkerlash va razvyortkalash.	4 ta
9	Rezba kesish	Rezbalik birikmalarni qo'llanishi, rezbalarning turi, rezba kesish texnologiyasi, rezba kesish asboblari, rezba kesish usullari, rezbalarni kesish jarayoniga tayyorgarlik ishlari, rezba kesishda xavfsizlik texnikasini tushuntirish. Rezbalarni kesish ishlariga tayyorgarlik qilish, tashqi va ichki rezbalarni kesish.	4 ta
10	Chilangarlik asboblari sozlash	Zubilo, kretsmeysel, parmalar, charxlash texnologiyasi, ularning kesuvchi qismi geometriyasi. Charxlash jarayoniga tayyorgarlik ishlari. Charxlash ishlarida xavfsizlik texnikasi. Chizg'ich, kerner, zubilo, kretsmeysel, parmalar, charxlash	4 ta

## V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	20 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	60 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketmaketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20 %

## VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

## VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

## VIII. Imtihon tartibi

*Taqiqlangan vositalar:* imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iy man etiladi.

*Axloq va intizom:* nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

### **IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar**

1. Shavkat Mirziyoyev “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
2. Shavkat Mirziyoyev “Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir” Toshkent – “O‘zbekiston”-2018.
3. Shavkat Mirziyoyev “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz” Toshkent – “O‘zbekiston”-2016.
4. Shavkat Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak” Toshkent – “O‘zbekiston”-2017.
5. K.Madumarov, A.Norqulov Texnikaviy chizmachilik Niso poligraf 2017 y.
6. Karimov SH.A. Chilangarlik asbob uskunalari kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T. «Voriz nashriyot» 2007. 184 b.
7. Zoirov I.U. Mexanik yig‘ish ishlari texnologiyasi kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T. «Yangi nashr» 2007. 207 b.
8. Mirzarahimov M., Mamajonov J., Yusupov B. texnik tizimlarda o‘lchash va tekshirish. kasb hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T. «Yangi nashr» 2008. 190 b.
9. B. Xaydarov «Chilangarlik ishlari» o‘quv amaliyoti bo‘yicha ta’lim texnologiyasi: metodik qo‘llanma – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT, 2016. – 212 b.
10. Dolgix A. I, «Slesarnoye delo»: «Nauchnaya kniga» 2013g. 620 s 11. Pokrovskiy B.S., Skakun V.A. «Slesarnoye delo». 2-ye izd. – M.: Akademiya, 2004. - 320 s.
12. G. V. Chumachenko, N. V. Mategorin, Y. T. Chumachenko «Slesarnoye delo i texnicheskiye izmereniya» (dlya avtoremontnix spetsialnostey). KnoRus 2020. 260 s.
13. Matkarimov A., Axmadjonov F. Materialshunoslik. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. T. «O‘qituvchi» 2007. 80 b.
14. N.Makarenko. Chilangarlik .Tashkent 2003

*\*Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to‘g‘ridan - to‘g‘ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko‘rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko‘ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*